

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XALQ O'YINLARI TEXNOLOGIYALARI

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani*

*5-sonli MTT ning 1-maktabgacha tayyorlov guruh 2-toifali tarbiyachisi*

*Xamidova Barfina Ismatullo qizi*

Annotatsiya: Milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. U bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada milliy xalq o'yinlari haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Maktabgacha ta'lim, milliy xalq o'yinlari, madaniyat, sport, sog'lom hayot.

Annotation: National folk games bring special pleasure to children of preschool age and have a positive effect on their mood. It is of great importance in children's physical, mental, and moral development, and their development into strong, agile, resourceful, resourceful, brave people. This article is about national folk games.

Key words: Pre-school education, national folk games, culture, sports, healthy life.

Yuqorida qayd etilgan jihatlarni inobatga olgan holda vazirlik tashabbusi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda etnosport turlarini ommalashtirish maqsadida bir nechta milliy xalq o'yinlari Toshkent shahar Olmazor tumanida joylashgan 146-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ishtirokida namoyish etildi. Hozirgi sharoitda o'zbek xalq o'yinlarining asosiy vazifasi o'z mazmuni va usuliyati bilan bolalarning jamiyatimiz talablariga muvofiq yo'sinda tarbiyalanishi ta'minlash, ularda ahloqiy, irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ijodkor va bunyodkorlarga xos ko'nikma hamda, malakalarni, vatanparvar fuqorolarga xos fazilatlarni shakllantirishdan iborat. O'zbek xalq o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida gap borar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ular eng avvalo ularda o'z qishlog'iga, shahriga Vataniga va u yerda yashovchi barcha xalqlarga muhabbat,

hurmat hamda ehtirom hislarini, milliy g'ururni tarbiyalaydi. Eng muhimi o'zbek xalqining milliy ma'daniyatiga, o'tmishdagi va hozirgi turmushidagi milliy an'analari hamda san'atiga muhabbat uyg'otadi O'zbek xalq o'yinlari jarayonida bo'g'cha yoshidagi bolalarni mehnat ko'nikmalarini egallashi ularda kishilarning mehnatdagi qaxramonligi va go'zalligini tarbiyalashning dastlabki kurtaklari hisoblanadi. O'yin jarayonida kichik maktabgacha yoshidagi bolalar, ijod, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishning vositasi, nihoyat, quvonchli va zavq-shavq manbai bo'lgan mehnat xususiyatlariga doir tushunchalar shakllanadi, ular jamoa mehnatining bilib oladilar.

O'yinlarning birinchi rivojlanish bosqichi-insoniyatning mehnati bolalarning tarbiyaviy va sog'lomlashtirish masalalari bilan bog'liq. Ular har xil maqsad bilan o'tkaziladi: elementar harakat malakalarini shakllantirish, maktabgacha bo'lgan bolalarda qiyin jismoniy mashqni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatini tarbiyalash, bolalarni, talabalarni hamda sportchilarni jismoniy tayyorgarligi O'yin davomida bolalar yuradilar, sakraydilar, yuguradilar, o'rmaydilar, biror bir buyumni irg'itadilar, natijada ularning mushaklari va sezgi organlari rivojlanadi, organizmni hayot faoliyati yanada oshadi. O'yinda bolalarning irodasi, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundira olish ko'nikmasi shakllanadi, u o'zini qo'pol hatti - harakatlardan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga (yashirinish, yugurish, tutib olish, tez fikrlash, og'ir ahvoldan qutilib ketish chorasini topishga) o'rgatadi.

O'yinlar jismoniy tarbiya tizimida foydali vosita hisoblanadi, ularning aniq tavsiflanishini talab qiladi. Lekin ularning hajmi va o'ynalishi har xilligi tasnifni aniq bir shaklga keltirishga yo'l qo'ymaydi. Mavjud bo'lgan o'yinlarni tizimga solish tashkiliy va pedagogik belgilari bo'yicha ko'rib chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat dasturi. Toshkent 2018. O'quv qo'llanma.
2. B.T.Haydarov, G.X.Ibroimova, J.J.Kazimov "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazaryasi". SamDU tahririy -nashriyot bo'limida chop etilgan.Samarqand -2020.
3. B.T.Haydarov, G.X.Xolboyeva darslik "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". SamDU tahririy -nashriyot bo'limida chop etilgan. Samarqand -2020.
- 4.Tulenova X., Xo'jaev F, Xo'jaeva.Meliyev H "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". T; Iqtisod-Moliya 2012 y o'quv qo'llanma